

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA

Qarshiboyev Ismat Tursunmatovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Ilmiy rahbar: i.f.d.TDIU Yadgarov Akram Akbarovich

Annotatsiya: Dunyoda hozirgi vaqtda ta'lim sohisiga ajratilgan xarajatlar jahon bozorining yirik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarida oliy ta'lim tizimi jahonda barqaror iqtidodiy o'sishning muhim predmetiga aylanadi deya e'tirof etmoqda. 2030-yilda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning umumiy soni 414 million nafarga yetadi va 2000-yilga nisbatan taqqoslaganda 4,2 barobarga ko'payadi¹. Shu bois ham oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologilari asosida boshqarish va takomillashtirishda elektronlashtirish va elektron ta'lim texnologiyalari jahon ta'lim bozorining eng jadal rivojlanayotgan ko'rsatkichiga aylanishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyat, 'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, ta'lim, innovatsion va ishlab chiqarish

Amaliyotda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni zamonaviy va axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish bo'yicha bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarining reytingini yuksaltirish, innovatsiyalar va ichki innovatsion salohiyatidan har jihatdan samarali foydalanish asosida ta'lim, innovatsion va ishlab chiqarish faoliyatini integratsiyalash mehanizmlarini joriy etish bilan bog'liq tarmoq ta'lim resurslarini shakllantirish, ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda inson kapitalini rivojlantirish boshqaruv mehanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohasining zamonaviy talab va ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ishga yo'naltirishni boshqarishga tizimli yondashish, ta'limning sifatini oshirish, jarayonlarni optimal boshqarish, tartibga solishni takomillashtirish, jarayonlarga investitsiyalar, innovatsiyalar va IT texnologiyalarini jalb etish kabi masalalar asosiy ilmiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida rivojlantirishga e'tibor qaratib kelmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini ko‘paytirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga javob beraoladigan malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish va xususiy tadbirkorlik faoliyati jarayonlariga jalb etish”² bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amaliy ijrosini ta‘minlash respublikamizning oliy ta’lim tizimining taraqqiyot bosqichini chuqur tahlil qilish hamda oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatini axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son, 2018-yil 13-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, shuningdek axborot tizimlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5598-son, 2018-yil 19-fevralda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son, 2018-yil 21-noyabrda “Raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-son, 2018-yil 7-mayda “Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalarida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-son, 2018-yil 5-iyunda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotiga muayyan darajada xizmat qiladi. Dunyo iqtisodiyotining globallashuv sharoitida axborotlashgan jamiyatning qonuniyatlarini aniqlash, ta’lim tizimini boshqarish usullari va mexanizmlarini modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirishning o‘zaro aloqasini ilmiy asoslash;

- Axborot-kommunikatsiyalari va innovatsiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim innovatsion faoliyatida boshqaruvining huquqiy-me‘yoriy hamda institutsional asoslarini o‘rganish;

- Klaster yondashuvi asosida oliy ta’limni boshqarishning innovatsion modelini shakllantirishga uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish;

- Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvini axborotlashtirish samaradorligini baholash indikatorlari va yondashuvlarini ishlab chiqish;
- Axborot-tahliliy platformalardan foydalanga holda ta'lim tizimini boshqarishning yagona axborot tizimini rejalashtirish-loyihalashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Oliy ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar boshqaruvini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash;
- Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning tizimli omillarini aniqlash;
- Inson kapitalini rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida oliy ta'lim muassasalarining kadrlar salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashni takomillashtirish;
- O'zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsiyalardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirishning istiqbollari ishlab chiqish.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning innovatsion loyihalarini tijoratlashtirish va amaliyotga tatbiq etish, innovatsion loyihalarning jozibadorligini ochib berish yoki investorlarning innovatsiyalarni qidirib topishi uchun har ikkala tomonga ham naf keltiruvchi yagona onlayn elektron bozorni yaratish.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasini Innovatsion rivojlantirish strategiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, Ilmiy tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish, Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash, yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish, Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini takomillashtirish, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi, Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirish, Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish, Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtirdorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, Innovatsion faoliyat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada

takomillashtirish va boshqa qator yo‘nalishlarga muvofiq amalga oshirilgan. Bugungi kunda jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘rishini ta‘minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 70-90 foizi aynan innovatsion faoliyatni rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda. Bunda strategik muhim ilmiy-texnologik va istiqbolli innovatsion loyihalarni joriy etish orqali yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mahalliy innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida iqtisodiyotning yuksak taraqqiyotiga erishmoqdalar.

Jahonda innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Bu borada innovatsiya faoliyati infratuzilmasi subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion mahsulotlar bozorini maqsadli rivojlantirishni samarali boshqarish hamda subyektlarining start-ap loyihalarini investitsiya bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim o‘rin tutmoqda. Ta‘kidlash kerakki, ilmiy izlanishlarda innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirishda innovatsion klasterni tashkil etish masalasi ustuvor mavzular sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirishning hozirgi bosqichida innovatsiyalarni joriy etish va tijoratlashtirish iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”. Shu jihatdan, innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda innovatsion klaster konsepsiyasiga asoslangan holda iqtisodiyot raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N.M. “Ijtimoiy pedagogika”- T.: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Toshkent: “Uzbekiston” NMIU, 2018. -В. 23.
4. Zaynutdinov Sh, N. Innovatsion menejment.. -Т.: Akademiya, 2006. -С.267.
Зайнутдинов Ш.Н Теория пять «И» нан новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishig RU, 2018. -С. 49; Расулев А.Ф. Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике //